

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI**

**JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLAR MULKINING QO‘RIQLANISHINI TA‘MINLASH
SAMARADORLIGINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

Mamlakatimizda o‘tgan davr mobaynida davlat, o‘ta muhim, toifalangan va boshqa obyektlarni, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini ishonchli qo‘riqlashni ta‘minlovchi sifat jihatidan yangi tizimni joriy etish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Biroq, qo‘riqlash faoliyatini tashkil etishda hozirga qadar bir qator muammolar mavjud bo‘lib, bular ichki ishlar organlarining mulkni qo‘riqlash bo‘yicha xizmatlari qamrovining torligi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish darajasining pastligi, mavjud qo‘riqlash tizimi va texnologiyalarining yetarlicha samarali emasligi, ushbu sohada sifatli servis xizmatini ko‘rsatishning yagona texnik talablari va mexanizmlarining yo‘qligida namoyon bo‘lmoqda.

Oldingi tahrirga qarang.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo‘riqlash bosh boshqarmasining jismoniy va yuridik shaxslar mulkining qo‘riqlanishini ta‘minlash bo‘yicha faoliyati samaradorligini oshirish, shuningdek, mulkka bo‘lgan tajovuzni profilaktika qilish va oldini olishda aholining zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishi uchun qulay shart-sharoit yaratish maqsadida:

(muqaddimaning uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-iyuldagi PQ-5190-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 23.07.2021-y., 07/21/5190/0689-son)

1. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuraturasi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika kengashining huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimiga quyidagilarni nazarda tutuvchi “Xavfsiz xonadon” konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda — Konsepsiya)ni joriy etish to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullansin:

2022-yil 31-dekabrga qadar respublikaning barcha hududlarida Toshkent shahrida amalga oshirilgan texnik qo‘riqlash va harakatlanish punktlariga xabarni uzatish va markazlashgan kuzatuvning avtomatlashtirilgan tizimi (keyingi o‘rinlarda — avtomatlashtirilgan tizim)ni bosqichma-bosqich joriy etish;

Oldingi tahrirga qarang.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo‘riqlash bosh boshqarmasi qo‘riqlash bo‘linmalarining ichki ishlar organlari jamoat tartibini saqlash kuchlarining patrul guruhlari bilan uzviy hamkorligini tashkil etish va bunda qo‘riqlanadigan obyektlardan kelib tushgan xabar joyiga eng yaqin patrul guruhining tez yetib borishini ta‘minlash mexanizmlarini belgilash;

(1-bandning uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-iyuldagi PQ-5190-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 23.07.2021-y., 07/21/5190/0689-son)

Oldingi tahrirga qarang.

mulkni qo‘riqlash bo‘yicha xizmat turlarini kengaytirish, shu jumladan transport vositalari va boshqa harakatlanuvchi obyektlarni qo‘riqlovga olish imkoniyatini beruvchi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

(1-bandning to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-martdagi PQ-4229-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 07.03.2019-y., 07/19/4229/2710-son)

Oldingi tahrirga qarang.

yangi turar joylar qurilishida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo‘riqlash bosh boshqarmasi va Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan kelishilgan holda ularni majburiy tarzda qo‘riqlash-yong‘in tashvishgohlari va gazoanalizatorlar bilan jihozlash;

(1-bandning beshinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-iyuldagi PQ-5190-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 23.07.2021-y., 07/21/5190/0689-son)

respublika mahallalarini ularning xavfsizlik darajasining choraklik reytingini joriy etgan holda baholash hamda har yili “Eng xavfsiz mahalla” respublika tanlovini o‘tkazish.

Oldingi tahrirga qarang.

2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyaning Milliy gvardiya Qo‘riqlash bosh boshqarmasi (keyingi o‘rinlarda — Qo‘riqlash bosh boshqarmasi) tarkibida quyidagilarni tashkil etish to‘g‘risidagi taklifga rozilik berilsin:

(2-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-martdagi PQ-4229-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 07.03.2019-y., 07/19/4229/2710-son)

Oldingi tahrirga qarang.

a) asosiy faoliyat yo‘nalishi etib qo‘riqlanadigan obyektlarda o‘rnatiladigan qo‘riqlashning texnik vositalari va tizimlarini montaj, demontaj qilish, ta‘mirlash, ularga texnik xizmat ko‘rsatish va ekspluatatsiya qilish bo‘yicha ishlarni bajarishni belgilagan holda “Qo‘riqlash Servis” davlat unitar korxonasi (keyingi o‘rinlarda — “Qo‘riqlash Servis” DUK);

(2-bandning “a” kichik bandi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi PQ-11-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.01.2023-y., 07/23/11/0045-son)

b) asosiy vazifalari etib quyidagilarni belgilagan holda Qo‘riqlash bosh boshqarmasining umumiy shtatlari soni doirasida 5 shtat birligida matbuot bo‘limini:

Oldingi tahrirga qarang.

aholining O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo‘riqlash bosh boshqarmasining qo‘riqlash xizmatlaridan foydalanishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga qaratilgan axborot-tushuntirish mazmunidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish;

(2-band “b” kichik bandining ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-iyuldagi PQ-5190-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 23.07.2021-y., 07/21/5190/0689-son)

Oldingi tahrirga qarang.

aholiga O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo‘riqlash bosh boshqarmasining qo‘riqlash bo‘linmalari faoliyati natijalari to‘g‘risida ma‘lumotlarni, shu jumladan uning rasmiy veb-saytining samarali faoliyat ko‘rsatishini tashkil etish orqali o‘z vaqtida yetkazish bo‘yicha kompleks choralarni ko‘rish.

(2-band “b” kichik bandining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-iyuldagi PQ-5190-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 23.07.2021-y., 07/21/5190/0689-son)

3. Belgilab qo‘yilsinki:

Oldingi tahrirga qarang.

“Qo‘riqlash Servis” DUK o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo‘riqlash bosh boshqarmasi bo‘linmalari bilan qo‘riqlanadigan obyektlarda o‘rnatilgan qo‘riqlashning texnik vositalari va tizimlariga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshiradi;

(3-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi PQ-11-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.01.2023-y., 07/23/11/0045-son)

Oldingi tahrirga qarang.

qo‘riqlanadigan obyektlarda o‘rnatilgan qo‘riqlashning texnik vositalari va tizimlariga, shu jumladan avtomatlashtirilgan tizimning texnik infrastruktura obyektlariga xizmat ko‘rsatish faqat “Qo‘riqlash Servis” DUK tomonidan amalga oshiriladi.

(3-bandning uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi PQ-11-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.01.2023-y., 07/23/11/0045-son)

Oldingi tahrirga qarang.

4. 2019-yil 1-yanvardan boshlab shunday amaliyot joriy etilsinki, unga ko'ra jismoniy shaxslarning uy-joylari va xonadonlariga ularga qo'riqlash xizmatini ko'rsatish mobaynida foydalanishga beriladigan qo'riqlashning texnik vositalari jihozlarini o'rnatish hamda bepul texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni bajarish O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo'riqlash bosh boshqarmasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

(4-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi PQ-11-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.01.2023-y., 07/23/11/0045-son)

5. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi:

“O'zbektelekom” AJ hududiy filiallari avtomatik telefon stansiyalari binolarida avtomatlashtirilgan tizimning jihozlarini o'rnatish uchun zarur bo'lgan joylarni o'rnatilgan tartibda ajratish;

avtomatlashtirilgan tizimning to'laqonli faoliyat ko'rsatishi uchun aloqa tariflariga, shuningdek, “O'zbektelekom” AJ optik tolali aloqa kabellarini yotqizish bo'yicha xizmatlariga imtiyoz taqdim etilishini ta'minlasin.

6. Belgilansinki:

Oldingi tahrirga qarang.

jamoat xavfsizligini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini qo'riqlashni to'laqonli ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo'riqlash bosh boshqarmasi tomonidan hududlarda patrullikni tashkil etish bilan bog'liqlikda videokuzatuv va texnik vositalarning butun kompleksidan foydalaniladi;

(6-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-iyuldagi PQ-5190-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.07.2021-y., 07/21/5190/0689-son)

Qo'riqlash bosh boshqarmasiga, istisno tariqasida, avtomatlashtirilgan tizimni joriy etish maqsadida mahalliy va xorijiy korxonalar bilan tovarlarni xarid qilish va yetkazib berish, shuningdek, xizmat ko'rsatish bo'yicha konkurs (tender) savdolarini o'tkazmasdan shartnomalar tuzishga ruxsat etiladi;

Qo'riqlash bosh boshqarmasi 2022-yil 1-yanvargacha bo'lgan muddatga o'rnatilgan tartibda shakllantiriladigan ro'yxatga muvofiq avtomatlashtirilgan tizimni joriy etish uchun olib kiriladigan jihoz, texnika, aloqa tizimi va vositalari, dasturiy mahsulotlar uchun bojxona to'lovlarini (bojxona rasmiylashtiruv yig'imlaridan tashqari) to'lashdan ozod etiladi;

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida” 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son **Farmoniga** muvofiq 2019-yil 1-yanvardan boshlab davlat maqsadli jamg'armalariga undiriladigan majburiy ajratmalar bekor qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo'riqlash bosh boshqarmasining bo'shaydigan moliyaviy mablag'lari jismoniy shaxslarning xonadonlari va uy-joylariga bosqichma-bosqich qo'riqlash jihozlarini bepul o'rnatish va ularga xizmat ko'rsatishga yo'naltiriladi.

(6-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-iyuldagi PQ-5190-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.07.2021-y., 07/21/5190/0689-son)

7. Qurilish vazirligi uch oy muddatda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga yangi turar joylar qurishda ularni qo'riqlash-yong'in tashvishgohlari va gazoanalizatorlar bilan jihozlash majburiyiligini ko'zda tutuvchi takliflarni kiritsin.

8. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi:

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda avtomatlashtirilgan tizimni respublikaning barcha hududlarida joriy etish hamda bosqichma-bosqich rivojlantirish bo'yicha Texnik topshiriq va dastlabki texnik-iqtisodiy hisob-kitoblarni ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashi bilan birgalikda bir oy muddatda ushbu qaror talablariga muvofiq, namunali

fuqarolar yig'inlarini rag'batlantirish mexanizmini nazarda tutgan holda, respublika mahallalarini baholash tartibini tasdiqlasin;

bir oy muddatda "Qo'riqlash Servis" DUK nizomini tasdiqlashni, davlat ro'yxatidan o'tkazishni va ustav fondini shakllantirishni ta'minlasin;

Moliya vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda ilg'or xorijiy tajribani o'rganish asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini qo'riqlashni ta'minlash sohasida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish bo'yicha takliflar kiritsin;

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo'riqlash bosh boshqarmasi qo'riqlash bo'linmalari mutaxassislarini chaqirishning yagona qisqa raqamini, shuningdek, texnik qo'riqlash va harakatlanish punktlariga ulanish uchun onlayn ariza rasmiylashtirish tartibini kiritish choralarini ko'rsin.

(8-bandning oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-iyuldagi PQ-5190-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.07.2021-y., 07/21/5190/0689-son)

9. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Z.Sh. Nizomiddinov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining birinchi o'rinbosari B.M. Mavlonov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2018-yil 12-dekabr,
PQ-4060-son

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.12.2018-y., 07/18/4060/2312-son; 07.03.2019-y., 07/19/4229/2710-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.07.2021-y., 07/21/5190/0689-son; 21.01.2023-y., 07/23/11/0045-son)